

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА
КАФЕДРАСИ**

**“ШАРҚ ТИЛЛАРИ ТАЪЛИМИ ВА БУХОРИЙЛАР МЕРОСИНИ
ЎРГАНИШ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ”
МАРКАЗИ**

**“АҲМАД ИБН ҲАФС КАБИР БУХОРИЙ
МЕРОСИ ВА УНИНГ ИЛҚ ШАРҚ
РЕНЕССАНСИ ҲАМДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ
ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ЯРАТИШДАГИ
ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ” МАВЗУСИДАГИ**

**ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
ТЎПЛАМИ**

2022 йил 16-17 июнь

Бухорои шариф – 2022

Аҳмад ибн Ҳафс Кабир ал-Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ ренессанси ва Ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти / халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. 16-17 июнь 2022 йил.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Бобир Бахриевич НАМОЗОВ – Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори (DSc), доцент.

Ҳакима Юсуповна САЛОМОВА – Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори.

Абдуҳаким Зиёитдинович ШАРИПОВ – Бухоро давлат университети ҳузуридаги Педагогика институти Ижтимоий фанлар кафедраси мудир, фалсафа фанлари доктори (DSc), доцент.

Ҳусен Хайруллоевич ДЖУРАЕВ – Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Зубайдилло Ибодиллаевич НАРЗИЕВ – Бухоро давлат университети Сиртқи таълим йўналиши декани, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.

Ҳурматли мақола ва тезис муаллифлари!

Тўпламга киритилган мақолаларнинг савияси ва камчиликлари, плагиат учун муаллифларнинг ўзи масъул ҳисобланишини эслатамиз.

Конференция Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
2022 йил 2 мартдаги 101-Ф-сон фармойишига асосида
ўтказилмоқда.

АННОТАЦИЯ:

Мазкур халқаро илмий-амалий анжуман, Абу Ҳанифа асос солган ҳанафийлик мазҳаби VIII аср ўрталарида, унинг ҳаётлик чоғиданоқ тарқала бошлаб, ушбу асрнинг охирларида бошқа ўлкалар, жумладан, Мовароуннаҳрга ҳам етиб келган. Бухорода Фикҳ мактабига асос солган Абу Ҳафс Кабир Бухорийнинг (150/768-216-17/832) мероси ва унинг илк Шарқ ренессанси ҳамда ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамиятига бағишланган. Мазкур тўпلامдан хорижий мамлакатлар ҳамда Республикамиздаги нуфузли олийгоҳлар профессор-ўқитувчилари, илмий тадқиқотчилар, диний таълим муассасалари мударрислари ва магистрантларнинг тезис мақолалари илмий-назарий изланишлари ўрин олган.

АННОТАЦИЯ:

Эта международная научно-практическая конференция показала, что секта ханафизма, основанная Абу Ханифой, начала распространяться с середины VIII века, еще при его жизни, и в конце этого века достигла других стран, в том числе Мавераннахра. Абу Хафс Кабир Бухари, который основал школу фикха в Бухаре (150/768-216-17/832), его роль и значение в создании научно-теоретических основ раннего Восточного ренессанса и исламской философии. В данном сборнике собраны тезисные статьи и научно-теоретические исследования профессорско-преподавательского состава, научных исследователей, руководителей религиозных образовательных учреждений и магистрантов престижных университетов зарубежных стран и Республики.

ANNOTATION:

This international scientific and practical conference showed that the Hanafi sect founded by Abu Hanifa began to spread from the middle of the 8th century, during his lifetime, and at the end of this century reached other countries, including Maverannahr. Abu Hafс Kabir Bukhari, who founded the school of fiqh in Bukhara (150/768-216-17/832), his role and importance in creating the scientific and theoretical foundations of the early Eastern Renaissance and Islamic philosophy. This collection contains abstract articles and scientific and theoretical studies of the teaching staff, scientific researchers, heads of religious educational institutions and undergraduates of prestigious universities of foreign countries and the Republic.



ТАБРИК СЎЗИ

Янги Ўзбекистонда жадаллик билан олиб борилаётган ислохотлар халқимизнинг бой қадимий тарихи ва маданияти, буюк алломалари, азиз-авлиёларининг илмий, диний ҳамда маънавий меросини ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва тарғиб этиш, муқаддас қадамжоларини обод қилиш, ёш авлодни уларнинг эзгу анъаналари руҳида тарбиялашга бўлган тарихий заруратни юзага чиқармоқда.

Инсон қадри учун, маърифатли жамиятни брпо этиш мақсади, маънавий-маърифий соҳадаги ислохотларни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтаришни тақозо этмоқда.

Илм-фан, нуфузли илмий-тадқиқот муассасалари учун маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларга қулай шарт-шароитлар яратиш, тарихий-маданий меросимизни илмий ўрганиш, буюк аллома ва мутафаккирларимизнинг жаҳон илм-фани ва цивилизацияси ривожига қўшган бекиёс ҳиссасини тарғиб этиш, шу асосда юртдошларимизни, аввало, ёш авлодни халқимизнинг нодир меросига ҳурмат, она юртимизга меҳр ва садоқат руҳида тарбиялаш мақсадларига қаратилган амалий ишларни янада кенгайтириш лозимлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш албатта тажрибдан ўтган инсоният тамаддунига муҳим ҳисса бўлиб қўшилган алломаларимизнинг меросини ўрганишдан бошланишига шубҳа йўқ. Зеро, Ренессанслар тарихига назар солинса, асосий ҳаракатлантирувчи куч Мовароуннаҳр заминидан етишиб чиққан алломалар эканлигига шубҳа қолдирмайди.

Асрлар давомида Ўзбекистон замини мусулмон оламининг буюк ва ноёб маданияти, илм-фани ва ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг марказларидан бири бўлганидан сизлар, албатта, хабардорсиз. Қадимий Ўзбекистон, яъни Мовароуннаҳр диёри ислом дунёсининг юксак маданияти ва цивилизацияси ривожига унутилмас ҳисса қўшган аллома ва мутафаккирлар юртидир. Бухоролик буюк уламо – Имом Аҳмад ибн Ҳафс Кабир Бухорий ва унинг бутун дунёга танилган шогирдлари Имом ал-Бухорий ва Имом Термизий асарларининг ислом фалсафаси илмий-назарий асосларини яратишдаги аҳамияти бекиёсдир. Шу маънода, ушбу анжуман галдаги илмий муаммоларни ҳал қилиш йўлида ўзига хос аҳамият касб этади. Анжуман иштирокчиларини, онлайн иштирок этаётган меҳмонларимизга куч-қувват саломатлик тилайман.

Ботир Комилович ЗАРИПОВ

Бухоро вилоят ҳоқими.

бағишланган бўлимида, “улар, моҳиятан, ҳақиқат ҳақидаги фалсафий-тасаввуфий қарашларнинг ниҳоятда қисқартирилган кўриниши деса ҳам бўлади. Кўнгил-руҳнинг иккинчи ҳайрати динлар ҳақиқатини англаши билан боғлиқ. Кўнгил коинотни сайр қилиб, энг юқори оламга етиб борадиган воситадир” деб, эътироф этилади.

Навоий фикрича, динлар турли хил бўлишига қарамай, уларнинг ҳақиқати-асосида ягона Ҳақнинг ўзи туради. Муафаккир ижоди згуликни тараннум этади. Бундан ташқари, Алишер Навоий ўзининг бир фалсафий мазмунли ғазалларида ҳаёт қадрини баланд тутмоқлик, турли қайғулардан ортиқча изтироб чекмасликни уқтириб, ҳар бир қоронғуликдан сўнг ёруғлик келишини таъкидлайди. Алишер Навоий тасаввуфнинг асл моҳиятини эслатиб, шундай фалсафий фикрларни илгари сурадики, унда фақатгина кундалик мазмунга оид панду насихатлар эмас, балки улкан умумбашарий муаммолар тараннум этилади. Навоийнинг тасаввуфона байтлари ижтимоий воқеъликка муносабат шаклида ёзилган бўлиб, ундаги адолатсизлик қарши кураш ғоялари очиқ талқин қилинади. Навоий нафақат шоир балки, соф қалбли мусулмон сифатида тариқати ғояларини ҳимоя қилиб талқин қилган. Тариқатга зид бўлган кўринишларни хусусан, адолатсизлик, ҳақсизлик, нафси аммолага берилиш, текинхўрлик ва дангасаликни кескин қоралаган.

Навоий меросининг ёш авлоднинг маънавий камол топишидаги ўрни бекиёсдир. Мутафаккир асарларида ота-она, устоз, ёши улуғларни ҳурмат қилиш илм-маърифатни эгаллаш, яхши ахлоқ эгаси бўлиш, ёмонлик ва ёмонлардан узоқ бўлиш сингари масалалар қаламга олинганки, булар, шубҳасиз, барча замонлар учун бирдай орзу бўлиб келган комил инсон ғояси билан чамбарчас боғлиқдир.

Алишер Навоий ўзидан бой шеърӣй, насрий ва илмий мерос қолдирган бўлиб, бу мероснинг ҳажмини шоирнинг ўзи “Лисон ут-тайр” достонида юз минг байтдан иборатлигини тасдиқлаган. Алишер Навоий асарлари ўнлаб халқлар тилларига таржималар қилинган. Алишер Навоий ўзининг бой мероси билан ўзбек адабиётини жаҳонга олиб чиқиб, ўзбек адабий тилига асос солган мутафаккирдир. Ўзбек адабиётида лирик жанрлар ва дostonчиликнинг энг юқори тараққиёти Алишер Навоий номи билан эътироф этилади.

Алишер Навоий бутун ҳаёти ва фолиятини инсоннинг бахт-саодати, халқининг фаровонлигига бағишлаган. Навоий асарларида иймон, инсоф, диёнат, саховат, мурувват каби инсоний қадриятлар ҳамиша тараннум этилиб, бошқалар ҳам шунга даъват этилган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Алишер Навои. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тарихи анбиё ва ҳукамо. 16 том. Т. Фан. 2000. 329 б.
2. Алишер Навоий. Тарихи мулуки ажам. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 16 том. Т. Фан. 2020. 329 б.

ABU HAFS KABIR – IMOM HOJATBAROR

Bobir Baxtiyorovich BOLTAYEV

BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi

Abu Hafs Kabir hanafiy mazhabi ta'limotlarini birinchi bo'lib Movarounnahrda olib kelgan alloma sifatida etirof etiladi. O'sha davrda Buxoroda u insoning qo'l ostidan juda ko'pgina faqihlar va olimlar yetishib chiqdi. Tarixchilarning ta'kidlashlaricha, Buxoroda ilmning tarqalishi, imom va ulamolarning hurmat topishiga sababchi bo'lgan kishi Abu Hafs Kabir bo'lgan. Abdulkarim as-Sam'oniyning aytishicha, Abu Hafs ko'pgina faqihlarni tarbiyalab, kamolga yetishtirgan¹.

Abu Hafs Kabir Movarounnahrda nafaqat fiqh ilmining, balki Buxoro kalom (islom falsafasi, ilohiyotshunoslik) maktabining ham asoschisidir. U zotning Buxoroda, qolaversa

¹ www.idmedina.ru Роберт Альмеев. Святые места Бухары. Мазар Хазрати Имам. 22.06.2016.

Movarounnahrda islom olamidagi salohiyati va nufuzi beqiyos hisoblanadi. Abu Hafs Kabir Buxoroda bir necha masjid va madrasalar qurib, tolibi ilmlarga fiqh, hadis, tasavvuf, aqida ilmlaridan dars o'tib, odamlarda paydo bo'lgan turli savollar va masalalarning javoblarini aytib berar edi. Shu uchun bo'lsa, kerak Buxoroda birinchilardan bo'lib dars berish maskani ya'ni ilk madrasa ham ochilishi aynan shu inson nomi va faoliyati bilan tilga olinadi. Abu Hafs Kabir hanafiy mazhabi fiqhining Movarounnahrda tarqalishida jonbozlik ko'rsatgan bo'lsa, uning oilasi, xususan, o'g'li Faqih Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Hafsning ham bu borada xizmati buyuk bo'lgan. Shuning uchun ham uni Abu Hafs Sag'ir, ya'ni kichik Abu Hafs deb atashgan¹.

Abu Hafs Kabirning shuhrati o'sha davrda butun islom olamiga tarqaladi. Hatto, arab diyori olimlari biror masalaning javobini topishga qiynalib qolishsa, Buxoroga Abu Hafs Kabirning oldiga bir kishini yuborib, o'sha masalaning yechimini topishga erishishgan. Abu Hafs Kabirning sharofatlaridan Buxoroda fiqh shu darajada rivojlanadiki, Buxoro faqihlari islom olamining asosiy shahri Bag'dod faqihlaridan ustun bo'lganlar. Narshaxiyning ta'kidlashicha, odamlar Bag'doddan qaytgan paytlarida Imom Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriydan biror masalani so'rash uchun ham kelardilar. Imom Abu Hafs al-Kabir ulardan ajablanib so'rardi: "Nima uchun Iroq olimlaridan so'ramadingiz?" Unga javoban: "Ulardan so'radik, lekin ular javob berolmadilar, Iroq olimlari "Buxoroga borib, Imom Abu Hafs al-Kabir yo o'g'illari Abu Hafs as-Sag'irdan so'ranglar, deb aytishdi"². Abu Hafs Kabir boshliq Buxoro faqihlari fiqhni chuqur biladigan va kuchli xotirali deb tavsiflanganlar. O'sha davr ulamolari uning ilmu fazlini baholab, uni "Muallimi islom", ya'ni islom dinining muallimi, uning sharofati bilan Buxoroni "Qubbat ul-islom", ya'ni islom dini gumbazi va u kishi yashaydigan mahalla darvozasini "Haq roh", ya'ni haq yo'l deb atashgan³.

Movarounnahrda juda katta kalomchilik maktabi yaratilib, uning asoschisi Abu Hafs Kabir Buxoriy hisoblanar edi. Mazkur zot to'g'risida tarixiy kitoblarda ham, turli diniy tasavvufiy manqabaviy asarlarda ham juda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Faqih Abu Hafs al-Kabir mozori tabarruk ziyoratgohga aylanib qolgan va unga "Tariq ul-haq" (Haq yo'l) deb nom berilgan. Chunki odamlar u yerga fatvolarini olib borib, meros bo'lib qolgan odatga ko'ra istixora qilishgan. Allomaning qabri xalqimizning Buxoro shahridagi eng serqatnov va gavjum ziyoratgohlaridan biri sifatida e'zozlangan, buxoroliklar mazkur mozorda dafn qilinishni o'zlariga sharaf deb bilishgan, qiyomat kuni hazrat Abu Hafs Kabir bilan birga bosh ko'taraylik, deb umid qilishgan⁴.

Ma'lumki, mozorlarga barcha zamon va makonlarda islom madaniyatining muhim qismi sifatida qaralgan. Chunki islom dini ta'limoti bo'yicha, inson vafot etganida ham xuddi tirikligidek azizu mukarram. Marhumni yuvish va dafn etishda maxsus qonun-qoidalar shart bo'lgan. Buxoroga islom dini kirgach, odamlar marhumlarni islomiy urf-odat bo'yicha dafn etishgan. Davrlar o'tishi, odamlarning ko'payishi natijasida, shaharda mozorlar ko'paygan. Bunday mozorlarning ko'payishi va obod maskanga aylanishida Abu Hafs Kabirning xizmatlari juda cheksizdir deb hisoblaymiz. Yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki bu buyuk shaxs tomonidan ilmga tayangan holda keltirilgan fatvolari hanuzgacha o'ta zarur, hayotiy hamda bu kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan desak mubolag'a bo'lmaydi⁵. Shu kecha kunduzda, qaysi bir fiqhiy yoxud fatvo kitobini varaqlamaylik, albatta unda Abu Hafs Kabirning fatvolariga duch kelamiz. Ammo ayanchlisi shundaki bizning davrgacha bu shaxsning fatvoga oid kitoblari deyarli yetib kelmagan. Lekin ayrim manbalar Abu Hafs Kabir xonadoni, ularning ilmiy salohiyati, islom tamadduniga qo'shgan hissasi to'g'risida ma'lumot bera oladi. Demakki, biz

¹ Н.Махмудова Абу Хафс Кабир Бухари -Святой Имам. Наставник учёных в Мавераннахре (Сборник научно-познавательных статей). –Бухара. 2021 г. Стр. 45- 46.

² www.idmedina.ru Роберт Альмеев, Бахтияр Бабаджанов. Каменная летопись мазара Хазрат-и Имама.// Ислам в Содружестве Независимых Государств № 1(2) 2011. 06.06.2011.

³ К.Рахимов Бухорони qubbat ul- islom etgan alloma Toshkent. 2021-yil. bet-5562

⁴ <https://www.bukhari.uz/?p=17800&lang=oz>

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Hafsi_Kabir

mana shunday yirik allomaning ilmiy merosini o'rganish uchun dunyo kutubxonalarida, jumladan, Misr, Turkiya, Damashq, Bayrutda Buxoriylar ilmiy merosi bo'yicha saqlanayotgan qo'lyozmalar, manbalarni o'rganib, ular nusxalarini olib kelib, tarjima qilishimiz yosh avlodga o'rgatmog'imiz darkor¹.

Abu Hafsnig quyidagi hikmatlari ham ibratlidir: "Insonni kambag'al bo'lishiga sabab bo'luvchi ishlar quyidagilar: non ushoqlarini oyoq ostiga tashlamoq, yuzni etak bilan artmoq, namozni tark qilmoq, kechaning avvalida zud yotmoq, uyni supurmasdan qo'ymoq, ostonada o'tirmoq, idish-tovoqni yuvmay qo'ymoq, qo'lni yuvmay taom yemoq, Qur'oni karimni tahoratsiz olib o'qimoq, ota-onaning nomini olib chaqirmoq, tirnoqlarni tish bilan olmoq, yoshi katta, oqsoqollar oldidan kesib o'tmoq!"

Hazrat Abu Hafs dedilar: "Imonning vojibotlari o'n ikkitadir: olimlar bilan hamsuhbat bo'lmoq, fosiq insonlardan uzoq yurmoq, chanqagan kishiga suv bermoq, bemorlar holidan xabar olmoq, yetimlar boshini silamoq, ikki urushgan kishini yarashtirib qo'ymoq, darveshlarga saxovat ko'rsatmoq, o'lganlarni yuvmoq, yo'ldan toshlarni olib chetga qo'ymoq, mo'min birodarning aybini yopmoq, Xonai Ka'bani tavof qilmoq, o'z oila a'zolariga ilm o'rgatmoq". Ushbu yuqoridagi keltirilgan hikmatlardan shu narsa ko'rinib turibdiki islomshunos, fiqh ilmining bilimdoni Hazrat Abu Hafs Kabir o'z davarining yetuk islomshunos olimi va fuzalosi bo'lgan, xalqni ilmi qilishda savodini oshirishda o'z kuch g'ayratlarini ayamay xizmat qilgan allomadir. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda hozirgi kunda bunday buyuk shaxslarning hayotiy tajribasi va ilmiy merosini o'rganish va kelajak avlodlarga yetgazish bizning oldimizda turgan eng asosiy dolzarb vazifalardan biri desak aslo adashmaymiz².

Buxoro bir necha asrlar davomida islom madaniyati poytaxti bo'lib kelgan, buning rasmiy tasdig'i Islom hamkorlik tashkilotiga (IHT) a'zo davlatlar madaniyat vazirlarining 2019-yilda o'tkazilgan 9-konferensiyasi qarorining qabul qilinishi bo'ldi. 2020-yilda Buxoro (O'zbekiston), Qohira (Misr) va Bamako (Mali) islom madaniyati poytaxtlari bo'ldi³.

Qadimdan Buxoro barcha davrlarning bilimdon ilohiyotshunoslari to'plangan maskan bo'lib kelgan. Buxoro ilmi asoschisi, Movaraunnahrda hanafiylik fiqh mazhabining asoschisi Ahmad ibn Xafs Abu Xafs Kabir Buxoriy (767 - 832) dafn etilgan Hazrati Imom mozorini ko'pchilik biladi. Uning ismi VIII asrdan boshlab xalq xotirasida ham, tarixchi va ilohiyotshunoslarning yozma asarlarida ham hozirgi kungacha tilga olingan. Va uning qabri qariyb 1200 yil davomida musulmonlar uchun ibodat joyi bo'lib kelgan. Abu Hafs, afsonalarga ko'ra, Turon shohi Afrasiyobning qabri bo'lgan tepalikda dafn etilgan⁴.

Abu Hafsnig o'zi "Kabir Buxoriy" – "Ulug'vor Buxoriy" va "Imomi xo'jatbaror" – "Halos qiluvchi Imom", "Hazrati Imom" – "Janobi Imom" unvonlari bilan taqdirlangan. Olim Abu Hafs Kabir Buxoriy, o'zining qabrida yozilganidek, "Movfraunnahrdagi olimlarning ustoz" (Ustaz Ulamo bi Movaraunnahr) hisoblanadi⁵.

Grant doirasida ilmiy-ma'rifiy maqolalar to'plami "Abu Hafs Kabir Buxoriy – Imomi muqaddas, tabarruk. "Movaraunnahr olimlari ustoz" mavzusida birlamchi manbalar, Hazrati Imom mozorining paydo bo'lish tarixi, Abu Hafs Kabir Buxoriy hayoti va faoliyatiga oid ilmiy maqolalar ko'rib chiqildi. To'plam islom dini, so'fiylik tarixini o'rganuvchi tadqiqotchilar, Buxoroning muqaddas maskanlari, o'z ona yurti tarixi bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan. Ushbu to'plamning 135 nusxasi Buxoro shahridagi 65 ta mahallaga bepul tarqatildi. "Buxoro merosi" ilmiy-tadqiqot markazi ko'ngillilari tomonidan Buxoro shahridagi 65 ta mahallada

¹ Мухиддин Нўъмонов, ЎМининг Бухоро вилоятидаги вакили "Хидоят" // 2009 йил 11-сонидан олинди.

² www.idmedina.ru Роберт Альмеев. Святые места Бухары. Мазар Хазрати Имам. 22.06.2016. Данная статья опубликована в научном журнале «Минарет». Нижний Новгород, Россия, 2007. № 3-4.

³ Н.Махмудова Абу Хафс Кабир Бухари -Святой Имам. Наставник учёных в Мавераннахре (Сборник научно-познавательных статей). –Бухара. 2021 г. Стр. 37-40.

⁴ См.: Комилжон Рахимов. Абу Хафс Кабир Бухари – великий богослов исламского мира и история возникновения кладбища Хазрати Имама». Абдулгани Абдуллах. Фукахоу Бухоро ал-кудамо (Древние факихи Бухары) // Совет Шарки мусулмонлари. 1982. № 3. С. 14.

⁵ Muhiddin No'monov, O'MIning Buxoro viloyatidagi vakili "Hidoyat" jurnalidan 2009 yil 11-sonidan olindi.

“Buxoroning “Islom gumbazi” shakllanishida Abu Hafsi Kabirning o‘rni, roli va ahamiyati” mavzusida suhbatlar, ma’ruzalar tinglandi.

Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashi huzuridagi Jamoat fondi granti bo‘yicha (2019-yil 6-noyabr 01-01/3-son), loyihaga ko‘ra: «Qabrston va muqaddas qadamjolarini obodonlashtirish va buni nazorat qilish uchun jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, hamda ijtimoiy sheriklik doirasidagi ma’naviy-marifiy, targ‘ibot chora tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha (Hazrati Imom qabrstonini obodonlashtirish bo‘yicha) "BUXORO MEROSI" ilmiy-tadqiqot markazining faoliyati ham juda ahamiyatga molik deb hisoblaymiz. Chunki bir guruh Buxorolik va Poytaxt olimlari hamkorligida juda ko‘p manbalar tarjima qilindi, yangilari o‘rganildi va sharqshunoslik institutining etuk mutaxassisi hamda katta ilmiy xodimi Komiljon Raximov tomonidan yangi kitob yozib tugatildi dva keng ommaga taqdim etildi.

Buxoro davlat universiteti Tarix va madaniy meros fakulteti “Buxoro tarixi” kafedrasida katta o‘qituvchisi yuqorida nomi keltirilgan grant volantyori Boltayev Bobir Baxtiyorovich tomonidan Abu Hafsi Kabir ziyoratgohi joylashgan Buxoro viloyati 5-sonli G‘afur G‘ulom mahallasida. “Buxoroni Qubbat-ul islom etgan alloma” nomli doimiy faoliyat yurutuvchi ko‘rgazma tashkil etildi. Bundan tashqari ziyoratgoh joylashgan ko‘chalarga rus, ingliz, va o‘zbek tilda Abu Hafsi Kabir hayoti va faoliyati yoritilgan to‘rt dona stellalar ko‘cha nomini aks ettirib turuvchi panolar o‘rnatildi.

ADABIYOTLAR

1. www.idmedina.ru Robert Almeyev. Svyatyue mesta Buxary. Mazar Hazrati Imam. 22.06.2016.
2. N.Maxmudova Abu Hafsi Kabir Buxari -Svyatoy Imam. Nastavnik uchyonykh v Maverannaxre (Sbornik nauchno-poznavatelnykh statey). –Buxara. 2021 g. Str. 45- 46.
3. www.idmedina.ru Robert Almeyev, Baxtiyar Babadjanov. Kamennaya letopis mazara Hazrat-i Imama.// Islam v Sodrujestve Nezavisimyykh Gosudarstv № 1(2)' 2011. 06.06.2011.
4. K.Rahimov Buxoroni qubbat ul- islom etgan alloma Toshkent. 2021-yil. bet-5562
5. Muhiddin No‘monov, O‘Mning Buxoro viloyatidagi vakili “Hidoyat” jurnalidan 2009 yil 11-sonidan olindi.
6. www.idmedina.ru Robert Almeyev. Svyatyue mesta Buxary. Mazar Hazrati Imam. 22.06.2016. Dannaya statya opublikovana v nauchnom jurnale «Minaret». Nijniy Novgorod. Rossiya, 2007. № 3-4.
7. Комилжон Рахимов. Абу Хафс Кабир Бухари – великий богослов исламского мира и история возникновения кладбища Hazrati Imama». Абдулгани Абдуллах. Фукахоу Бухоро ал-кудамо (Древние факихи Бухары) // Совет Шарки мусулмонлари. 1982. № 3. С. 14.
8. <https://www.bukhari.uz/?p=17800&lang=oz>
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Hafsi_Kabir

МУҲАММАД НАЗАРОВИЧ БОЛТАЕВНИНГ МИЛЛИЙ СОЦИОЛОГИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ ВА РОЛИ

Бобир Шаропович КАРИМОВ

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси
“Бошқарув социологияси ва психологияси” кафедраси
доценти, социология фанлари доктори*

Болтаев Муҳаммад Назарович (1928-2009 й.) фалсафа фанлари доктори, профессор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби. Менинг хотирамда ушбу суратдагидай сочлари ва қошлари оппоқ, нигоҳлари маъноли, келишган, баланд бўйли, хушмуомала, мулоҳазали, талабчан, саксон ёшдан ошган бўлсада тетик, нуроний сифатидан гавдаланиб қолган.

У кишини ўта парҳезкор, меҳнатсевар, ҳалол, пок, самимий, камсукум, ҳақиқатпарвар, мутафаккир, ижодкор инсон деб таърифлашарди.

Utayeva F.X.	Buxoro IP-yigiruv fabrikasida kutubxona, sport to'g'araklari faoliyati.	357
Исаев Й.	Муҳаддис Бужайрийнинг ҳадис илмида тутган ўрни.	360
Umarova M.S.qizi	«Shajarayi Turk» asari bo'yicha sharq va g'arb olimlarining olib borgan tadqiqotlari.	363
Fayzieyev I.SH.	Tarix- kelajak kaliti	367
Меликова М.Н.	Философский анализ концепции совершенной личности в накшбандизме	369
Norova M.F. Khudoykulova M.	Views On Humanity In Kubravian Doctrine	373
Eshmamatov B. Rahmatov F.	Nemis tili darslarida zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish	375
Эшпулатов И.С.	Ибн Сино фалсафаси ва унинг инсон камолодаги аҳамияти	377
Rahmonova D.	Nemis klassik falsafasi vakillarining ijtimoiy qarashlari	380
Файзиходжаева Д.И.	Болтаев М. Мантқиқшунос олим	382
Файзиходжаева Д.	Шайх Юсуф Ҳамадоний: инсон ва коинот алоқадорлиги	384
Мухсимов Д.	Тасаввуф таълимоти ва уни ўрганиш масалалари.	387
Намозова К.Б.	Замонавий тилшуносликда тўй маросимлари лексикаси миллий-маданий хусусиятларининг ўрганилиши.	390
Bahriyeva Aziza	O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.	394
Сафарова Н.О.	Ҳанафинияда бағрикенгликнинг фикҳий асослари	397
Ражабова Д.Я.	XIX аср 2-ярми-xx аср бошларида Бухоро ислом конфессиясидаги ихтилофлар хусусида	400
Ҳакимхўжаев М.М. Усмонходжаева М.А.	Фалсафа илмида имманиул Кантнинг ўрни.	403
Шамсутдинова Н.К.	Идейно- теоретические и философские принципы Абу Али Ибн Сины в развитии мусльманской культуры.	405
Бешимов Б.И.	Терроризмнинг ривожланиш динамикаси ва дискурс концепти ҳамда унга қарши курашда аждодлар меросидан фойдаланиш масаласи	409
Shirinov A.Q.	Issues Of Human Development In Central Asia: Country Analysis Of Uzbekistan	411
Сативалдиев Пулат	Ватанпарварликда ворисийликнинг онтологик моҳияти.	414
Альмеев Р.В.	Святы́е места Бухары: мазар Хазрата Ходжа Мухаммада Порсо в Бухаре и его вклад в мировой успех духовного братства Накшбандийа.	415
Исомиддинов Й.Ю.	Фитрат фалсафий меросида гуманистик ғоя ва қарашлар таҳлили. (Абдурауф Фитратнинг “Мухтасар ислом тарихи асари” мисолида)	421
Узақова Л.А.	Алишер Навоий ижодида диний бағрикенглик масалалари	424
Voltayev V.V.	Abu Hafs Kabir – Imom Hojatbaror	425
Каримов Б.Ш.	Муҳаммад Назарович Болтаевнинг миллий социологияни ривожлантиришдаги ўрни ва роли.	428
Саданова Д.А.	Жамият тараққиёти: илмий-назарий ёндошувдаги ўзига хосликлар.	433
Раупова Р.С.	Хожа Исмаил Бухорий меросининг ахлоқий-тарбиявий жиҳатлари ва унинг ёшлар тарбиясидаги ўрни.	436
Ғафуров Д.О.	Оила ва никоҳда исломий муносабатлар тасаввуфий таълимотлар асоси	438
Султонова Н.Э. Султонов Ш.Ж.	Ўзбекистон Республикасида гендер тенглик стратегияси ва аёлларнинг кадр-қиммати масалалари.	441
Бозорова Р.Ш.	“Меҳр” тушунчасининг фалсафий таҳлили	444
Рашидов О.Р.	Ўзбек адабиётида миллий зиёлилар ҳамда большевиклар ўртасидаги мафкуравий кураш	446
To'rayeva G.B.	Suxareva O.A. tadqiqotlarida O'zbekistonda islom dini bilan bog'liq an'analar tahlili.	449
Ҳамзаев Ш.А.	Хожа Аҳмад Яссавий илмий-ижодий меросининг ўрганилиши	451
Шодиев Ж.Ж.	Маърифатли жамият ва ижтимоий маънавий муҳит барқарорлигини таъминлаш орқали инсон қадрини оширишга эришиш	454

Аҳмад ибн Ҳафс Кабир ал-Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ ренессанси ва Ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти

Равшанова Г.М.	Ёшлар онгида умуминсоний қадриятларни шакллантиришда замонавий таълим-тарбия ва ахборот технологияларнинг ўрни.	456
Дехқонов Б.Б.	Тасаввуф таълимотининг инсонда бағрикенгликни шакллантиришда тугган ўрни	458
Шарифова Г.Х.	Духовный мир Джалаладдина Руми	460
Izzatullayeva G.N.	Abu Ali Ibn Sina's Philosophical Views As Heritage Of The World	464
Urazmetov M.T.	The Religious-Philosophical Concept Of Suleyman Bakirgani	468
Шарипов А.З.	Янги Ўзбекистон: мамлакатнинг маънавий қиёфасини шакллантириш ва маърифий жамият барпо этишнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятларига доир мулоҳазалар.	471
Кўшшаева Н.М.	Мухаммад Назар Болтаев	476
Шокиров М.Р.	Тарихий тадқиқотларда тарихийлик ва мантиқийлик методларининг аҳамияти	479